

О‘ЗBEKISTONDA AHOЛИ BANDLIGINI TA’MINLASHDA RIVOJLANGAN XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASIDAN

Imiy rahbar: i.f.d., professor A.Bektemirov,
Mamatov Tohirjon - SamISI, “Bank-moliya
xizmatlari fakulteti” talabasi

FOYDALANISH

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonda aholi bandligini ta’minlash masalasi va bu borada rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari o‘rganilgan. Jumladan, Germaniya, Janubiy Koreya, Norvegiya va Yaponiya kabi mamlakatlarning bandlik siyosatiga oid yondashuvlari tahlil qilinib, ularning O‘zbekiston sharoitiga moslashuvi bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Maqolada xorijiy amaliyotdan kelib chiqib, mehnat bozorini tartibga solish, kasb-hunar ta’limi bilan bandlikni uyg‘unlashtirish, xususiy sektor ishtirokini kuchaytirish kabi ustuvor yo‘nalishlar asosida taklif va xulosalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot ilmiy-uslubiy asosda olib borilib, mamlakatda samarali bandlik siyosatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ishsizlik, holi bandligi, mehnat bozori, xorijiy tajriba, bandlik siyosati, ish o‘rinlari, kasb-hunar ta’limi, mehnat muhojirati, yoshlar bandligi, innovatsion yondashuv, iqtisodiy faollik, rivojlangan mamlakatlar

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida aholining to‘liq bandligini ta’minlash, kambag‘allikni qisqartirish va mehnat bozorini isloh qilish masalalariga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Ayniqsa, demografik o‘shishning yuqori darajada bo‘layotgani, yoshlar sonining ortib borayotgani va iqtisodiyotning tarkibiy o‘zgarishlar sari intilayotgani sharoitida bandlik siyosatini samarali yuritish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Aholi bandligi darajasi har bir davlatning iqtisodiy holatini belgilovchi muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Ish bilan ta'minlangan aholi – yalpi ichki mahsulot yaratishda ishtirok etadi, davlat budjetiga soliq to'laydi va iste'mol bozorining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Aholi bandligi past bo'lgan jamiyatlarda ishsizlik, norozilik kayfiyati va kambag'allik darajasi yuqori bo'ladi, bu esa umumiy iqtisodiy o'sishni sekinlashtiradi.

Mamlakatda aholi bandligini ta'minlash – ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikning muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, u bevosita inson kapitalining samarali ishlatilishi, daromadlar darajasi va aholining turmush sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Ayni paytda O'zbekistonda demografik o'sish sur'atlari, mehnat bozoridagi strukturaviy o'zgarishlar va iqtisodiy islohotlarning jadalligi aholining bandligi masalasiga yangicha yondashuvni talab qilmoqda.

Hozirgi globallashuv davrida raqobatbardosh mehnat bozorini shakllantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, ishsizlikni kamaytirish va aholi turmush darajasini oshirish uchun nafaqat ichki imkoniyatlarni safarbar etish, balki rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasidan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Germaniya, Janubiy Koreya, Skandinaviya mamlakatlari va boshqa ilg'or iqtisodiyotga ega davlatlar bandlikni rag'batlantirish bo'yicha innovatsion yondashuvlar, faol mehnat bozori siyosati va ta'lim-bandlik integratsiyasi orqali salmoqli yutuqlarga erishgan.

O'zbekiston sharoitida bu tajribalarni o'rganish va amaliyotga moslashtirish orqali yangi, zamonaviy, moslashuvchan bandlik modelini yaratish imkoniyati mavjud. Bu esa nafaqat mehnat resurslaridan samarali foydalanishga, balki ijtimoiy barqarorlik, kambag'allikni kamaytirish, oilaviy farovonlik va iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirishga xizmat qiladi. Shu boisdan ushbu mavzu nafaqat ilmiy-nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb bo'lib, davlat siyosati, mehnat munosabatlari va inson kapitali rivoji bilan bevosita bog'liqdir.

Юқорида келтирилган фикр-мулоҳазалар танланган мавзунинг долзарблигини белгилаб беради ва унинг ечимларини тадқиқот натижалари асосида қуйида кўриб чиқамиз.

Adabiyotlar tahlili. Aholi bandligini ta'minlashda bir qator xalqaro mehnat tashkilotlari va iqtisodchi olimlar ilmiy yondoshuvlar asosida tadqiqot ishlarini olib borgan va bormoqda. Ularning tadqiqot natijalari shu mavzuga bag'ishlangan asarlarda o'z aksini topgan. Ularning ayrimlari to'g'risida to'xtalamiz.

Xalqaro Mehnat Tashkilotining 2023 yildagi hisobotida (ILO (International Labour Organization) – “World Employment and Social Outlook”) jahon bo'yicha bandlik tendensiyalari, yoshlar bandligi, ayollar ishtiroki va pandemiya ta'siri muhokama qilingan. Bu hisobotda xalqaro tajriba asosida O'zbekiston uchun gender tengligi, inklyuziv bandlik va raqamli mehnat bozori imkoniyatlari tahlil qilingan [1].

Yana bir xalqaro tashkilot OECD'ning yillik tahliliy hisobotlarida (**OECD – “Employment Outlook”, 2022**) Yevropa va Osiyo mamlakatlarida bandlik siyosati, mehnat sharoitlari va moslashuvchan mehnat shakllari to'g'risida to'xtalib, aynan O'zbekiston uchun "moslashuvchan ish vaqti", "masofaviy ish" kabi ilg'or yondashuvlarni joriy etish imkoniyatlari tahlil qilingan [2].

Jahon banki hisobotida (World Bank – “Jobs Diagnostic Uzbekistan”, 2020) O'zbekistondagi mehnat bozori tahlil qilingana, ishchi kuchining samaradorligi, mehnat muhojirati va iqtisodiy faollik darajasi statistik ma'lumotlar bilan ko'rsatib berish bilan birga Xalqaro moliyaviy institutlar ko'magida samarali bandlik siyosatini shakllantirish tavsiyalari ishlab chiqilgan [3].

Aholi bandligini ta'minlash b'uyicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan bir qator iqtisodchi olimlarнинг fikrlari diqqatga sazovor. Ular ўз asarlarida mamlakat aholisining bandligini ta'minlashdagi muammolar va ularning eчимlari, шу билан бирга халқаро тажрибаларни ёритиб берганлар. Жумладан: иқтисодчи олим D. Acemoglu AQSH mehnat bozoriga oid fundamental tadqiqotlar olib borib, texnologik taraqqiyotning ish o'rinlari va kasbiy malakalar tarkibiga

ta'sirini ўрганиб, avtomatlashtirish va raqamli iqtisodiyotda bandlik strategiyasini O'zbekiston sharoitiga moslashtirish yo'nalishlari ishlab chiqilgan [4].

Iqtisodchi olim D.X. Xodjueva mehnat bozori tarkibi, rivojlanish omillari va bandlikning milliy xususiyatlarini tahlil qilgan. U bandlik siyosatini takomillashtirishda xorijiy davlatlar, xususan, Germaniya va Koreya tajribasini O'zbekiston sharoitiga moslashtirish zarurligi ta'kidlaydi. Shu bilan birga olim bandlikning me'yoriy-huquqiy asoslari va institutsional rivojiga alohida urg'u bergan[5].

Tadqiqotchi Sh.T. Turanov Sh.T. – “Bandlik va ishsizlik muammolari: nazariya va amaliyot” deb nomlangan asarida global mehnat bozori muammolari, xususan, ishsizlik turlari va ularning sabablari tahlil qilingan. Skandinaviya davlatlaridagi "faol bandlik siyosati" modeli o'rganilgan va O'zbekiston uchun qaysi elementlar mos kelishini asoslab berish bilan birga, O'zbekistonning ishsizlikka qarshi kurashda "faol mehnat bozorini" shakllantirish imkoniyatlarini ko'rsatib bergan[6].

Yana bir tadqiqotchi olim, G.S. Mahmudova O'zbekistonda yoshlar bandligini ta'minlashda ta'lim va kasb-hunar integratsiyasining ahamiyatini ko'rsatib bergan, Germaniya dual ta'lim tizimi misolida ta'lim-bandlik o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlash orqali ish o'rinlarini yaratish yondashuvini asoslab bergan[7].

Yuqoridagi adabiyotlar O'zbekistonda bandlik masalalarini tizimli o'rganish, xorijiy tajribalardan mos jihatlarni olib qo'llash va milliy modelni shakllantirish uchun boy ilmiy-amaliy asos yaratadi. Xususan, Germaniya, Koreya, Skandinaviya mamlakatlarining tajribasi, xalqaro tashkilotlar tavsiyalari va mahalliy mualliflarning ishlari integratsiyalashgan yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, tizimli yondashuv, mantiqiy tahlil va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Bugungi globallashuv jarayonida mamlakat aholisining bandligini ta'minlash ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning asoslaridan biri

hisoblanadi. Bu yo‘nalishda avvalo aholi bandligini ta‘minlashdagi ustuvor yo‘nalishlarni aniqlash maqsadga muvofiq. Bizning nazarimizda mamlakatimizda bu sohadagi asosiy ustuvor yo‘nalishlar quyidagilardan iborat:

- yangi ish o‘rinlarini yaratish – investitsiya loyihalari, infratuzilma rivoji va xususiy sektorni kengaytirish orqali doimiy va mavsumiy ish o‘rinlarini ko‘paytirish;
- kasb-hunar va texnik ta‘limni rivojlantirish – mehnat bozoriga mos, amaliy ko‘nikmalarni beruvchi ta‘lim dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish;
- kichik biznes va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash – kreditlar, grantlar, soliq imtiyozlari orqali o‘zini o‘zi band qilganlar sonini oshirish;
- ayollar va yoshlar bandligini oshirish – ijtimoiy infratuzilmani (bolalar bog‘chalari, moslashuvchan ish rejimlari) rivojlantirish orqali ayollar uchun qulay sharoit yaratish. startaplar va yoshlar tashabbuslarini rag‘batlantirish;
- hududlar bo‘yicha bandlik siyosatini diversifikatsiya qilish – qishloq joylarda agrosanoat, xizmat ko‘rsatish va turizm sohalarini rivojlantirish orqali hududiy bandlikni ta‘minlash;
- chet elda vaqtincha mehnat faoliyatini muvofiqlashtirish – mehnat migrantlariga huquqiy, til va kasbiy tayyorgarlik bo‘yicha ko‘mak berish, ularning daromadlarini investitsiyaga yo‘naltirishni rag‘batlantirish;
- raqamli iqtisodiyotda bandlikni kengaytirish – it, freelancing va masofaviy ishlash imkoniyatlarini rivojlantirish, onlayn platformalar orqali yangi ish shakllarini yo‘lga qo‘yish;
- ishsizlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish – hayot davomida ta‘lim olish tamoyiliga asoslangan dasturlarni yo‘lga qo‘yish.

Navbatdagi vazifa bandlik siyosatini takomillashtirishda rivojlangan xorijiy davlatlar – Germaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Skandinaviya mamlakatlari va boshqalarning samarali tajribalarini o‘rganish va ularning moslashtirilgan modellarini joriy etish katta ahamiyatga ega. Идее берилган.

Shu nuqtai nazardan bu mamlakatlarda aholi bandligini ta‘minlashda erishilgan yutuqlar to‘g‘risida to‘xtalamiz.

Germaniya tajribasi. Germaniyada bandlik siyosati mehnat bozorining ehtiyojlariga mos ravishda kasbga o'qitish, qayta tayyorlash va qisqa muddatli ish stajirovkalari orqali amalga oshiriladi. "Dual ta'lim tizimi" orqali yoshlar nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy ko'nikmaga ham ega bo'ladi, bu esa ularning ishga joylashish imkoniyatini oshiradi.

Janubiy Koreya tajribasi. Janubiy Koreyada kichik biznes va startaplarni qo'llab-quvvatlash orqali bandlik kengaytiriladi. Maxsus "ish o'rinlari markazlari" orqali ishsizlarga kasbga yo'naltirish, maslahatlar va davlat grantlari taqdim etiladi.

Skandinaviya mamlakatlari tajribasi. Shvetsiya va Norvegiya kabi davlatlar "faol mehnat bozori siyosati" orqali bandlikni qo'llab-quvvatlaydi. Ular ishsizlarga nafaqat moddiy yordam, balki individual rejalashtirilgan ish topish xizmatlarini taklif qiladi.

O'zbekiston aholisining katta qismi mehnatga layoqatli yoshda ekani, bandlik siyosatini takomillashtirish uchun ulkan resurslar mavjudligini bildiradi. Yuqoridagi xorijiy tajribalarni quyidagi yo'nalishlarda moslashtirish mumkin:

- Kasb-hunar va texnik ta'limni ishlab chiqarish bilan integratsiyalash (Germaniya modeli).
- Kichik biznesni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash (Janubiy Koreya modeli).
- Individual bandlik dasturlari va mehnat bozoriga yo'naltirilgan maslahat xizmati (Skandinaviya modeli).

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, aholining barqaror bandligi mamlakatda ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy taraqqiyotga zamin yaratadi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, bandlik siyosati faqatgina ish o'rni yaratish bilan cheklanmasligi kerak, balki inson salohiyatini rivojlantirish, moslashuvchanlik va innovatsion yondashuvlarni ham o'z ichiga olishi lozim.

Asosiy adabiyotlar ro'yxati

1. International Labour Organization (ILO) – “World Employment and Social Outlook”. 2023. Nashriyot: ILO.
2. . OECD – “Employment Outlook”: 2022. Nashriyot: OECD Publishing
- 3.. World Bank – “Jobs Diagnostic Uzbekistan”. 2020. Nashriyot: World Bank Group
4. D. Acemoglu & D. “Skills, Tasks and Technologies: Implications for Employment and Earnings”. 2011, Nashriyot: National Bureau of Economic Research (NBER)
5. Xodjiev D.X. – “Mehnat bozori iqtisodiyoti”. 2020, Nashriyot: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.
6. Turanov Sh.T. – “Bandlik va ishsizlik muammolari: nazariya va amaliyot”. 2019, Nashriyot: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.
7. Mahmudova G.S. – “Yoshlar bandligini ta’minlashning zamonaviy usullari”. 2021, Nashriyot: Toshkent davlat pedagogika universiteti